

ADABIY ASARLAR YORDAMIDA BOSHLANG'ICH SINFLAR
O'QUVCHILARINING NUTQIY MADANIYATINI OSHIRISH

Kurbanova Gulzoda Yunusovna

BuxDPI o'qituvchisi

gulzodakurbanova84@gmail.com

Umarjonova Dilafruz Umidjon qizi

1-bosqich talabasi

Q. Murtazoyev ko'chasi 13 A-uy

Tel.: +99877208091

Annotatsiya: Mazkur maqolada adabiy asarlar orqali boshlang'ich sinflar o'quvchilarining nutqiy madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishning samarali usullari tahlil qilinadi. Shuningdek, badiiy matnlarning bolaning estetik didi, mantiqiy fikrlashi va og'zaki nutqini rivojlantirishdagi ahamiyati yoritiladi.

Annotation: This article analyzes effective methods for developing and enhancing primary school students speech culture through literary works. It also highlights the importance of literary texts in fostering childrens aesthetic taste, logical thinking, and oral speech.

Kalit so'zlar: Nutqiy madaniyat, boshlang'ich bilim, adabiy asarlar, og'zaki nutq, kommunikativ kompetensiya.

Keywords: Speech culture, primary education, literary works, oral speech, communicative competence.

Bugungi kunda ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biri- o'quvchilarning muloqotga kirishish, fikrini aniq ifodalash, tinglovchiga tushunarli tarzda gapira olish qobiliyatini shakllantirish. Ayniqsa, boshlang'ich sinflar bosqichida bu jarayon muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu borada adabiy asarlar katta imkoniyatlarni taqdim etadi. Bolalar adabiyoti vositasida o'quvchilarda estetik did, og'zaki va yozma ko'nikmalari rivojlanadi.

Nutqiy madaniyat - bu bolalarning o'z fikrlarini aniq, ravon va mazmunli ifodalash, muloqot jarayonida samarali ishtirok etish qobiliyatidir. Boshlang'ich sinflar yoshidagi o'quvchilarda nutqiy madaniyatni shakllantirishda adabiy asarlar muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Ular bolalarning so'z boyligini oshirish, grammatik to'g'rilikka erishish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun qimmatli manba hisoblanadi. Adabiy asarlar orqali o'quvchilar yangi so'z va iboralar bilan tanishadi, nutqning badiiy usullarini (tashbeh, istiora, metafora) o'rganadi, tilning ohang va uslub xususiyatlarini egallaydi, tasavvur va mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarining nutqiy madaniyatini oshirishda ertaklarni o'qib berish, qayta hikoyalash, ertaklarni qayta hikoya qilish, roll ijro etish, she'r yodlash qofiyalarni topib, ohangini takrorlash, hikoyalar qahramonlari, voqealarni ketma-ketlikda bayon qilish; asar qahramonlari haqida

suhbatqilish, o'qilgan asar bo'yicha savollarga javob qilish, voqealarni o'z so'zlari bilan bayon qilish; ertak davomini yozish, she'r yozish (qofiyali misralar), hikoya yaratish (berilgan mavzu bo'yicha), teatrlashtirish (kichik spektakllar), "Kim kim?" (qahramonlarni taxmin qilish), "So'z to'plam" (berilgan mavzuga tegishli so'zlar) kabi metodlarni qo'llash mumkin.

Adabiy asarlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy madaniyatini oshirishning samarali vositasi hisoblanadi. Ular bolalarni nafaqat til o'rganishga, balki madaniy, axloqiy va estetik jihatdan kamolotga yetishiga yordam beradi. O'qituvchilar adabiyotdan foydalanishda kreativ yondashuvni qo'llab, nutq mashqlarini muntazam tizimda amalga oshirishi lozim.

Badiiy adabiyot bolalarning tasavvurini boyitadi, ularni fikrlashga, his qilishga, o'z fikrini aniq va ravon ifoda etishga o'rgatadi. Adabiy asarlar orqali o'quvchilarning nutqiy madaniyatini shakllantirish nafaqat til boyligini oshirishga, balki og'zaki va yozma nutqda izchil, mantiqiy fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Nutqiy madaniyat bolaning ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatli muloqot qila olishi, o'z fikrini ravon, aniq va tushunarli ifoda etishi uchun zarur bo'lgan asosiy kompetensiyalardan biridir. Shu bois, bu ko'nikmani shakllantirishda adabiy asarlarning tutgan o'rni beqiyosdir. Dars jarayonlarida badiiy matnlar asosida olib boriladigan faoliyatlar- suhbat, ifodali o'qish, hikoya qilish, rolga kirish kabi mashg'ulotlar bolalarning nafaqat bilimini, balki muloqot madaniyatini ham yuksaltiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun nutqiy madaniyatni shakllantirish- ularning muloqotda to'g'ri, aniq, madaniyatli va adabiy til me'yorlariga mos so'zlasha olish malakalarini rivojlantirishni anglatadi. Bu jarayonda adabiy asarlar o'quvchilar uchun til boyligini oshiruvchi, obrazli fikrlashga undovchi va muloqotda estetik didni shakllantiruvchi muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Adabiy asarlar orqali bola jonli va obrazli tilni o'rganadi, o'qilgan matnlar orqali o'z hayotiy tajribasini kengaytiradi, axloqiy va estetik qadriyatlarni anglaydi. Ular nafaqat nutqiy kompetensiyani, balki shaxsiy sifatlar – hurmat, sabr, tinglay olish, to'g'ri muloqot qilish, fikrni asoslay olish kabi fazilatlarni ham tarbiyalaydi.

Adabiy asarlar yordamida o'quvchilarning nutqiy madaniyatini shakllantirishda quyidagi metodik yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi:

a) Ifodali o'qish

O'quvchilar she'r, dialog yoki hikoyani his-hayajon bilan, intonatsiyaga e'tibor qaratgan holda ifodali o'qish orqali obrazli nutqni o'rganadilar. Bu nafaqat ularning talaffuzini, balki matnni anglash, tahlil qilish va hissiy fikr bildirish ko'nikmalarini ham rivojlantiradi.

b) Savol-javob va suhbat tashkil etish

Har bir adabiy matn asosida suhbat va munozara tashkil etish o'quvchilarning mulohaza yuritish, fikr bildirish, bahslashish madaniyatini shakllantiradi. Bu orqali ular gap tuzish, sabab-oqibat bog'lanishini ko'rsatish, o'z nuqtai nazarini adabiy tilda ifodalashga o'rganadilar.

c) Ijodiy topshiriqlar

Asarni davom ettirish yoki yangicha yakun yozish;

Qahramonga maktub yozish ;

Obrazlar o'rtasida muloqot yaratish;

Asar asosida yangi hikoya yaratish.

Bu mashqlar o'quvchilarning yozma va og'zaki nutqini erkin va mantiqiy shakllantirishga xizmat qiladi.

d) So'z boyligini rivojlantirish ishlari

Matn asosida lug'at ustida ishlash- sinonimlar , antonimlar, frazeologizmlar bilan ishlash, yangi so'zlar bilan gap tuzish, ular bilan hikoya qilish- bularning barchasi o'quvchilarning til boyligini oshiradi.

3) Adabiy asar asosida mashg'ulot tashkil etish metodikasi

Boshlang'ich sinfda adabiy asarlar orqali nutqiy madaniyatni rivojlantirish uchun quyidagi metodik yondashuvlar qo'llaniladi:

Har bir o'quvchiga matnni ifodali o'qitish;

Intonatsiyaga e'tibor qaratish.

Qahramon holatiga kirib, his-hayajon bilan o'qishga o'rgatish;

O'qilgan matn asosida savol-javob tashkil qilish.

4) Darsda qo'llanilishi mumkin bo'lgan adabiy asarlar

Boshlang'ich sinf darsliklari va qo'shimcha adabiyotlarda quyidagi asarlar samarali vosita sifatida tavsiya qilinadi:

a) “ Shum bola” (G'afur G'ulom) - voqealar izchilligi, xarakterlar tahlili, ifodali o'qish;

b) “ Zumrat va Qimmat” (xalq ertagi) – ijobiy va salbiy obrazlar, axloqiy baholash, dramatizatsiya;

c) “ Yaxshilik unutilmaydi” (Odil Yoqubov) – fikrni yozma shaklda bayon qilish, monologik nutq;

d) Topishmoq, maqol, matal va hikmatli so'zlar – til boyligini kengaytirish , muloqot estetikasi.

Bu asarlarning o'quvchilarda to'g'ri talaffuz, ifoda, axloqiy tahlil va estetik didni rivojlantirishdagi roli beqiyosdir.

Nutqiy madaniyat o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishida, ularning jamiyatda muvaffaqiyatli bo'lishida muhim ahamiyatga ega. Adabiy asarlar

yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqiy madaniyatni shakllantirish, ularning leksik, grammatik va kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim vositadir. Shu bilan birga, o'qituvchilar tomonidan adabiy asarlarni to'g'ri tanlash va samarali ishlatish orqali o'quvchilarning nutqiy madaniyatini oshirish mumkin. O'quvchilarni ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarni tushunishga, o'zaro hurmat va tushunishni shakllantirishga hamda mustahkam kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishga ham imkon yaratadi.

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

VI son, May

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1) Jo'rayev T.T , Halimov S. G' "Nutq madaniyati" Samarqand 2021
- 2) Ziyodov T. " Nutqiy madaniyat va uning ta'limdagi ahamiyati". Toshkent 2020
- 3) R. Rasulov, Q. Mo'ydinov "Nutq madaniyati va notiqlik san'ati" Toshkent